

## **Til - millat ko'zgusi**

1989-yil 21-oktabrda "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. "Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinganligiga bu yil 30 yil to'ldi. O'tgan shu davrda ona tilimizning yanada sayqallanishi, badiiyligi, tarixiyligi va dunyo miqyosida ahamiyati hamda nufuzini oshirishga qaratilgan qator madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy ijro, izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Pirovard natijada, bugungi kunda jahondagi ko'plab mamlakatlar xalqlari davlatimiz ramzları — O'zbekiston Respublikasi bayrog'i, gerbi, davlat madhiyasi qatorida o'zbek tiliga ham hurmat bilan qarab, nafis va boy til sifatida yuksak baho berib kelmoqdalar.



Har yili 21-oktabr kuni mamlakatimizda til bayrami sifatida keng nishonlanishi an'anaga aylanib qolgan. Shu munosabat bilan 17 oktabr kuni 2 - Talabalar turar joyida Rahimboy Jumaniyozov ma'naviyat soati o'tkazdi. Mamlakatimizda ona tilimizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, uning milliy ruhini oshirish, madaniyat va san'atni yuksak pog'onalarga ko'tarish, shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish sohasida qabul qilingan Davlat dasturi ijrosini ta'minlashdek, ustuvor yo'nalishdagi vazifalarni bajarish bu bizning muqaddas burchimizdir. GIM fakulteti dekan o'rinosi O. Ro'ziboyev, "GMITE va T" kafedrasasi o'qituvchisi S. Melikuziyev, GIM "Gumanitar" kafedrasasi o'qituvchisi Ernazarov Sh., Et va EJF kafedrasasi oqituvchi Yusupov Sh. hamda GIM, QSXET fakulteti talabalari qatnashishdi.



**Tarbiyachi-pedagog, psixolog Dilorom Sagdullayeva axboroti**  
**Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**